

## PRESS-RELIZ

### **“El-yurt umidi” jamg‘armasining 2025-yil 2-ochiq stipendiya tanlovi suhbat bosqichi bo‘lib o‘tmoqda**

“El-yurt umidi” jamg‘armasining 2025-yil 2-ochiq stipendiya tanlovi suhbat bosqichi joriy yilning 9-dekabr kunidan boshlandi. Ushbu bosqich nomzodlarning xorijda ta‘lim olishidan kasbiy maqsadlari, o‘qishni yakunlab mamlakatimizga qaytgandan so‘ng, xorijda olgan ilg‘or nazariy bilim va tajribalarini amaliyotga tatbiq etish va O‘zbekistonning barqaror rivojlanishiga qo‘shishi mumkin bo‘lgan hissasini baholashga qaratilgan.

Mazkur bosqichga ishtirok etish uchun **303** nafar nomzod tavsiya etilgan, shu jumladan nomzodlar test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan hamda belgilangan muddatda o‘zining akademik salohiyatini tasdiqlovchi amaldagi xalqaro sertifikatlarni taqdim etgan.

“El-yurt umidi” stipendiyasiga nomzodlar uchun tashkil etilayotgan suhbatning asosiy maqsadi — ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini, ijtimoiy taraqqiyotiga erishgan jamiyat g‘oyalari anglab yetish darajasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarga doir nazariy tayyorgarligi, yuksak ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini baholashdan iboratdir.

Har bir nomzod davlat boshqaruvi tizimi mutaxassislari, akademik va ekspert hamjamiyati hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan tashkil topgan komissiya bilan individual suhbatdan o‘tadi.

Nomzodlarning ona Vatanga, tanlagan kasbiga sadoqati, ma‘naviy-axloqiy tafakkuri, sog‘lom dunyoqarashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetganligi darajasi, shuningdek, xorijda ta‘lim olishdan ko‘zlangan maqsadi, hamda o‘qishni tugatgach olingan bilim va malakalarini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari, tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari davlat tilida o‘tkaziladigan suhbat orqali aniqlanadi va baholanadi.

**Nomzodning xorijda ta‘lim olishdan ko‘zlangan maqsadi o‘qishni tuganganidan keying rejalari, bilim va tajribalarini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari haqidagi motivatsion essesi (yozma ishi) alohida inobatga olinadi.**

Suhbatni real vaqt rejimida kuzatib borish uchun situatsion markaz tashkil etildi. Onlayn translyatsiya va raqamli nazorat tizimlari orqali jarayonlarning ochiqligi va shaffofligi ta‘minlangan.

Shuningdek, ushbu bosqichda teng ishtirokni ta‘minlash maqsadida “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan nomzodlar uchun zarur sharoit va yengilliklar yaratilgan.

Xususan, ish yoki o‘qish tufayli xorijda bo‘lib turgan nomzodlarga suhbatdan onlayn tarzda o‘tish imkoniyati berildi. Bunday choralar har bir munosib nomzodning suhbatda o‘zini to‘liq namoyon etishi, texnik yoki vaqt

bilan bog'liq kabi sabablar tufayli o'z imkoniyatini boy bermasligini ta'minlashga qaratilgan.

**Tasdiqlangan jadval asosida suhbatlar 17-dekabrga qadar davom etadi.**

Ma'lumot uchun:

*“El-yurt umidi” jamg'armasi 2025-yil 2-ochiq stipendiya tanlovi doirasida **12 – 26-noyabr** kunlari hujjatlarni qabul qilish faqatgina ONE ID milliy raqamli identifikatsiya tizimi bilan integratsiya qilingan onlayn platforma orqali amalga oshirildi. Platformada **6000 dan** ortiq foydalanuvchi ro'yxatdan o'tdi, bu esa jamoatchilik orasida katta qiziqish uyg'onganini ko'rsatadi.*

*Hujjatlar topshirganlarning **60% bakalavr, 40% magistratura va doktorantura** ta'lim yo'nalishi bo'yicha dunyoning Top-300 talik universitetlaridan qabul xatlari olgan.*

*Nomzodlar **21 ta davlatdagi** universitetlardan qabul xatlarini olgan. Top-5 talik davlatlar qatorida — **Buyuk Britaniya, AQSH, Avstraliya, Italiya va Janubiy Koreya.***

*2-ochiq stipendiya tanlovi uchun **277 ta** kvota ajratilgan bo'lib, ular quyidagicha taqsimlangan: **105 — bakalavriat, 122 — magistratura, 50 — doktorantura.***

**“El-yurt umidi” jamg'armasi  
Jamoatchilik bilan aloqalar va axborot xizmati**

## ПРЕСС-РЕЛИЗ

### **Дан старт собеседованиям в рамках второго открытого конкурса на соискание стипендий фонда «Эл-юрт умиди»**

Этап собеседований в рамках второго открытого конкурса на соискание стипендий Фонда «Эл-юрт умиди» на 2025 год начался 9 декабря текущего года. Этот этап направлен на оценку профессиональных целей кандидатов в получении образования за рубежом, их планов по внедрению в практику передовых теоретических знаний и опыта, полученных за границей, после завершения обучения и возвращения в нашу страну, а также их потенциального вклада в устойчивое развитие Узбекистана.

Конкурсной комиссией для участия в данном этапе рекомендовано **303** кандидата, включая тех, кто успешно прошел тестовые испытания и представил в установленные сроки действующие международные сертификаты, подтверждающие их академический потенциал.

Основная цель собеседования, организуемого для кандидатов на соискание стипендии «Эл-юрт умиди», — оценка их способности к самостоятельному мышлению, уровня понимания идей общества, достигшего социального прогресса, теоретической подготовки к социально-экономическим и политическим процессам, а также духовно-эмоционального и просветительского уровня.

Каждый кандидат проходит индивидуальное собеседование с комиссией, состоящей из специалистов из системы государственного управления, представителей академического и экспертного сообщества, а также институтов гражданского общества.

Посредством собеседования на государственном языке определяются и оцениваются степень преданности кандидатов Родине, выбранной профессии, их духовно-нравственное мышление, здоровое мировоззрение, уровень осознания национальных и общечеловеческих ценностей, а также цели обучения за рубежом и возможности применения полученных знаний и навыков в Узбекистане, знания и навыки по выбранной специальности.

**При оценке кандидата на собеседовании особое внимание уделяется его мотивационному эссе (письменной работе) о целях обучения за рубежом и возможностях применения полученных знаний в Узбекистане после завершения обучения.**

Создан ситуационный центр, который обеспечивает мониторинг собеседований в режиме реального времени. Благодаря онлайн-трансляции и цифровым системам контроля обеспечивается открытость и прозрачность процессов.

Также в целях обеспечения равного участия на данном этапе Фондом «Эл-юрт умиди» для кандидатов созданы необходимые условия.

В частности, кандидатам, находящимся за рубежом по работе или учебе, была предоставлена возможность пройти собеседование онлайн. Такие меры направлены на то, чтобы каждый достойный кандидат мог полностью проявить себя на собеседовании и не упустить свой шанс из-за технических или временных ограничений.

**Согласно утвержденному графику, собеседования продлятся до 17 декабря.**

Для сведения:

В рамках второго открытого конкурса Фонда «Эл-юрт умиди» с 12 по 26 ноября осуществлялся прием документов исключительно через онлайн-платформу, интегрированную с национальной системой цифровой идентификации **ONE ID**. Это обеспечивает автоматическую верификацию данных и исключая субъективный фактор на начальных этапах, а также дает возможность большему количеству кандидатов подать заявки, не приезжая в столицу. При этом не только из Узбекистана, но и любой другой страны мира.

За время приёма документов на платформе **зарегистрировалось более 6 000 пользователей**, что демонстрирует высокий общественный интерес.

**60%** подавших документы получили письма о зачислении в университеты из Топ-300 мировых вузов по направлению бакалавриата, **40%** — магистратуры и докторантуры.

Кандидаты получили письма о зачислении от университетов 21 страны. В пятерку лидирующих стран входят **Великобритания, США, Австралия, Италия и Южная Корея**.

Для второго открытого конкурса выделено **277 квот**, распределённых следующим образом: **105** — бакалавриат, **122** — магистратура, **50** — докторантура.

**Служба по связям с общественностью и информации  
Фонда «Эл-юрт умиди»**